

O‘ZBEK VA UYG‘UR TILLARIDA TANGLAY UYG‘UNLIGI HODISASI

Ho Lim Song,

*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Hankuk chet tillar universiteti
E-mail: riohavana@naver.com*

Bobomuratova Shoira Erkinovna,

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
E-mail: shoira_bobomuratova@tues.uz*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18082333>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillarida turkiy tillar orasida keng tarqalgan singarmonizm hodisasining holati qisqacha tadqiq qilindi, ayniqsa, tanglay uyg‘unligi hodisasining ikki til shakllanishi davrida rivojlanib, keyin susayib borishi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: sigarmonizm, tanglay uyg‘unligi, hozirgi o‘zbek tili, hozirgi uyg‘ur tili, turkiy til fonetikasi.

Аннотация. В данной статье кратко исследовано состояние явления сингармонизма, широко распространенного среди тюркских языков в современных узбекском и уйгурском языках, в частности, изучается развитие феномена нёбной гармонии в период формирования двух языков, а затем его ослабление.

Ключевые слова: сигармонизм, нёбная гармония, современный узбекский язык, современный уйгурский язык, фонетика тюркского языка.

Annotation. This paper discusses the presence or absence of vowel harmony in modern Uzbek and Uyghur, a phenomenon common in Turkic dialects, and specifically examines the development and decline of palatal harmony in the formation of these two cognate languages.

Keawords: vowel harmony, palatalization, modern Uyghur, Uzbek dialects, Turkic phonetics.

Kirish. Turkiston o‘lkasida bolsheviklar hokimiyatni qo‘lga kiritgach, butun Markaziy Osiyo turkiy ziyolilari uchun yangi adabiy tilni yaratishi va unda jonli tilning xususiyatlarini aks ettirishiga bo‘lgan da‘vatni kuchaytirdi. Tabiiyki, uyg‘ur tilining eng ko‘zga ko‘ringan fonologik xususiyatlaridan biri – ikki til oldi lablangan unli tovush (/y/, /ø/)ni ifodalay oladigan ikki harf (ö, ü) orqali aks etadigan singarmonizm qoidasidir. So‘zning birinchi bo‘g‘inidagi unlilarning sifatiga ko‘ra keyingi bo‘g‘inidagi unlilar asli qanday bo‘lishiga qaramasdan o‘z qiyofasini o‘zgartirgan, sifat jihatdan birinchi bo‘g‘inidagi unli tovushga moslashgan. Ya‘ni so‘zning birinchi bo‘g‘inidagi unli tovushning sifatiga ko‘ra keyingi bo‘g‘inidagi unli tovushlarning sifat jihatidan o‘xshashligi unlilar uyg‘unligi yoki singarmonizm deyiladi. Turkiy tillarda unli tovushlarning uyg‘unlashishi ikki asosga ega: 1) tanglay uyg‘unligi (palatal singarmonizm); 2) lab uyg‘unligi (lab ohangi yoki labial singarmonizm).

Hozirgi uyg‘ur tilida tanglay uyg‘unligining namoyon bo‘lishi. Tanglay uyg‘unligi “til garmoniyasi” deb nomlanib, asosdagi unli old qator bo‘lsa, qo‘shimchadagi unli ham old

qator unli bilan talaffuz qilinadi. Ya'ni so'z tarkibidagi unli yumshoq tanglayda hosil bo'ladigan orqa qator qattiq unli bo'lsa, qo'shimchalar tarkibidagi unlilar ham shunga muvofiq orqa qator, qattiq unli bo'ladi. Agar so'z asosidagi unli tovush old qator, qattiq tanglay, yumshoq unli bo'lsa, qo'shimchalar tarkibidagi unli tovushlar ham shunga moslashadi. [1]

1-jadval.

Uyg'ur tilidagi tanglay uyg'unligiga misollar

O'LY	Bular ma'lum bir turda	Universitetda har xil fanlar bor
ULY	Bular me'lum bir türde	Uniwérsitétta her xil penler bar
Til oldi, labm. /æ/	/tyr-dæ/	/pæn-lær/
Til orqa, labm. /ɑ/	/bu-lar/	/ʔuniwersitet-ta/

Yuqorida ko'rsatilgandek, old qatorga mos keladigan /y, ø/ unlisi ham old qator /ε/, /æ/ yoki /i/ unlilari bilan, orqa qator /u, o/ esa orqa qator /ɑ/ yoki /u/ unlisi bilan bog'lanadi.

Bo'shliq unli. Ammo keyingi bo'g'indagi /i/ va /e/ unlilari suffiksda unli uyg'unligini keltirib chiqarmaydi. Tabiiyki, ular oldingi bo'g'inning o'zak unlisi suffiksning unlilar uyg'unligiga ta'sir qilish imkonini beruvchi yo'l vazifasini bajaradi, *uniwérsité-ta* /ʔuniwersitet-ta/ kabi. Shuning uchun uyg'ur tilshunosligida bu unli tovushni "bo'shliq unli" deb ham atashadi. Bo'shliq unli yagona negiz bo'lsa, suffiksdagi unli orqa qator ham, old qator ham bo'lishi mumkin va bunda alohida garmonik qonuniyat yo'q. Biroq uvular yoki velar undosh bor bo'lsa, uvular undoshi orqa qator /ɑ/ bilan, velar undoshi old qator /ε-æ/ bilan uyg'unlashadi. Masalan, *pishshiqi-da* /piʃʃiq-u-da/da suffiksdan oldingi bo'g'in /q/ portlovchisi palatallashgan undosh bo'lgani uchun keyingi old qator /i/ unlisi orqa qator /u/ unlisiga o'zgarib, qo'shimchadagi orqa qator /ɑ/ unlisi bilan uyg'unlashgan. [2] Uyg'ur fonetikasi bo'yicha mutaxassis C.Mayerning fikricha, velar va uvular undosh suffiksning unlini o'zgartirish uchun bevosita javobgar emas, balki unlilar uyg'unligi mos keladigan undoshlar tomonidan ta'sirlangan old qator /i/ va /e/ unlilari orqa qator /u/ va /ɤ/ga o'zgarishi sababli yuzaga keladi. A.Abdulla uvular /q/ va /ʁ/ dan tashqari, velar /χ/ undoshini ham javobgar sifatida izohlaydi. C.Mayer esa bu undosh /q/ va /ʁ/ kabi darajada til garmoniyasi vazifasini bajarmaydi, deb hisoblaydi. N.So'fi misoliga ko'ra, /χ/ tovushi /q/ ning allofoni bo'lib, javobgar vazifasini bajaradi. [3]

2-jadval.

Velar va uvular undoshdan olingan qo'shimchadagi unlining o'zgarishi

	velar(dorsal)		uvular	
Undosh	/k/	/q/	/q/	/ʁ/
ULY	kishi-ler	bigiz-ler	qiz-lar	yighin-lar
XFA	/kiʃi-lær/	/bigiz-lær/	/quz-lar/	/jiɣun-lar/

Chet tillardan kirgan o'zlashma so'zlarda singarmonizmning qo'llanilishi. Xorijiy tillardan uyg'ur tiliga kirgan o'zlashma so'zlarning barcha o'zakdagi unlilari suffiksning unli shaklini o'zgartira olmaydi. Turkiston o'lkasida arab va fors tillaridan (hatto xitoy tilidan ham) o'zlashgan so'zlar qariyb ming yil davomida o'zgarmagan holda yozilgan va o'qilgan,

shuning uchun ham bu o'zlashma so'zlarda unlilar uyg'unligi kam uchraydi. Masalan, fors tilidagi "yemoq" ma'noli fe'l خواردن /χ^wɔ:rdæn/ ning o'zak shakli خوار /χ^wɔ:r/ suffiksini "go'sht" so'zi گوشت /go:ft/ ga qo'shib, "go'sht yeyuvchi" /go:ftχ^wɔ:r/ ni hosil qiladi. Uyg'ur adabiy tilida esa /go:ft/ so'zidagi oxirgi undosh /t/ tushirilib, birinchi bo'g'indagi velar /g/ tovushi ta'siri bilan orqa qator /o/ unlisi old qator /ø/ga almashadi, natijada /gøfχyr/ deb talaffuz qilinishi shart, ammo /gøfχor/ to'g'ri bo'ladi. Shu yerda /χor/ qo'shimchasi negizdagi /ø/ unlisi bilan uyg'unlashmaydi. [4]

3-jadval.

Fors tillaridan uyg'ur tiliga kirgan so'zlar

forsiy	XFA	ULY	XFA
گوشتخوار	/go:ftχ ^w ɔ:r/	göshxor	/gøfχor/
خدمتکار	/χidmætka:r/	xizmetkar	/χizmætka:r/
آشپز	/ʔəʃp ^h æz/	ashpez	/ʔəʃp ^h æz/

Xulosa qilib aytganda, nafaqat arab va fors tillaridan, balki undan boshqa xorijiy tillardan (rus, xitoy, ingliz va h.) kirib kelgan o'zlashmalarda ham tanglay uyg'unligi qonuniga bo'ysunilmaydi. Bu esa yot so'zlarning uyg'ur tiliga singib ketganligi, lekin hali ham o'zlashma ekanligini ko'rsatib, Turkiston atrofidagi turkiy so'zlashuvchilar o'tmishda xuddi bugungidek ikki-uch tilli bo'lganliklarini isbotlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Singarmonizm turkiy tillar doirasida o'rganilgan sohalardan biri bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar ushbu sohaga doir fikrlarining nazariy va amaliy aspektlarini tadqiq etishga diqqat qaratganlar. O'zbekiston hududidagi singarmonizm borasida olib borilgan tadqiqotlar salmoqli bo'lsa-da, biroq ularning boshqa turkiy tillardagi mavjud fonetik qonuniyatlar bilan qiyosiy tahlili miqdor jihatidan oz.

Hozirgi o'zbek tilida tanglay uyg'unligi masalasida o'zbek olimlarining fikricha, hozirgi o'zbek tili va uning ayrim shahar shevalarida singarmonizmning har ikki ko'rinishi deyarli uchramaydi, faqat bir guruh shevalarda singarmonizmning tanglay garmoniyasi aniq kuzatiladi. Xususan, u qipchoq, o'g'uz va shimoliy o'zbek shevalarida hozirgi kunga qadar to'la saqlanib qolgan. [5] Shuningdek, E.D. Polivanov o'zbek shevalarining taksonomik mezonlarini quyidagicha belgilagan: 1) metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) - turkiy tillarning o'zaro munosabati, ya'ni bir-biriga ta'siri; 2) gibridizatsiya (qardosh bo'lmagan chet tillarning chatishuvi) - tojik tilining o'zbek shevalariga ta'siri. Polivanovning fikricha, o'zbek shevalari bu jihatdan ikki turga: eronlashmagan va eronlashgan shevalarga bo'linadi. Masalan, Toshkent, Qo'qon-Marg'ilon, Andijon-Shaxrixon tipidagi shevalarda eronlashish elementi mavjudligi, Buxoro, Samarqand, Xo'jand, O'ratepa tipidagi bir qancha shevalar maksimal darajada eronlashganini qayd qiladi. Eronlashmagan shevalarga esa Farg'onaning singarmonizmli qishloq (Saroy, Andijon, Yo'lguzar) shevalarini va o'zbek-qipchoq lahjasidagi shevalarni kiritadi. [6] Biroq, bu talqin sovet tadqiqotchilari tomonidan butunlay e'tiborga olinmagan ma'lum bir sinfnig til madaniyatini hisobga olmaslik natijasidir. Ya'ni XIX asrdan beri dindor-savdogarlar sinfi hozirgi o'zbek tilining shakllanishida katta rol

o'ynagan guruhlar, asosan, shaharlarda istiqomat qilgan. Ular tabiiy ravishda xuddi qadimgi so'g'diylar singari qardosh bo'lmagan chet tillarni, ayniqsa, fors-tojik tilini hamda uning yozilishi va o'qilishini ham yaxshi bilishgan. Rossiya inqilobidan oldin Turkiston o'lkasida fors-tojik tili madaniy jihatdan ustunlik qilganini hisobga olsak, asosan, arabiy va forsiy o'zlashma so'zlarni kundalik hayotda ishlatgan turkiy dindor-savdogar sinflar uni ataylab o'zgartirib, turkiycha talaffuzga moslashtirishganini tasavvur qilish qiyin. Rus tiliga yuksak nufuzli baho beradigan hozirgi O'zbekistonda ham o'zbek-ruscha zullisonayn o'zbeklar rus tilidagi so'zlar talaffuzini ona tiliga moslashtirish, o'zbek imlo-qoidalariga bo'ysundirishni istamaydilar. Aksincha, fors-tojik tili orqali bilim va tirikchilik qiladigan o'sha savdogar sinf bilan bir qatorda, qishloq va dasht hududlarida istiqomat qiluvchi ko'p sonli yagona bir tilda gaplashadigan va savodxonlik qobiliyatiga ega bo'lmagan turkiylar yashagan. Bunday vaziyatlarda sotsialistik mafkura orqali amalga oshirilgan dastlabki o'zbek adabiy tilining leksikasida salmoqli o'rin egallagan arab-fors so'zlar talaffuzda qulaylik yaratish maqsadida o'zgartirilgan bo'lishi tabiiy.

Yana bir e'tiborga olish kerak bo'lgan jihat shundaki, hozirgi o'zbek dialektologiyasi bo'yicha ko'proq keltiriladigan rus olimlarining ilmiy faoliyati bundan bir asr avval olib borilgan. 60 yillik mustamlakachilik davri va 30 yildan ortiq mustaqillik davridagi Farg'ona vodiysi qipchoq shevasining haqiqatda bugunda bor-yo'qligi shubhali. 2022-yili Namangan viloyati Pop tumanidagi Xonobod qishlog'iga borganimizda ko'pchilik mahalliy aholi o'zini "qipchoq" deb tanishtirar, biroq ularning barchasi o'zbek adabiy tilida so'zlashardi, hatto oqsoqollar orasidan ham asl qipchoq lahjasini aniq biladigan kishini topish qiyin edi. Buning sababi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab o'zbek adabiy tilida ommaviy ta'limning keng yo'lga qo'yilganligidir. Shuningdek, bugungi kunda Toshkent shahar shevasida tanglay uyg'unligi hodisasi birmuncha kuzatilayotganini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Masalan, adabiy tilida *boryapti* /bɔr.jæp.ti/ fe'li Toshkent shahrida *borvotti* /bɔr.vat.tu/ deb talaffuz qilinadi, hamda bunday so'zlashadigan toshkentliklar o'zlarini eski shahar, ya'ni Chorsu mahallasining tub aholisi deb bilishadi.

1929–34-yillarda o'zbek jadid ziyolilari tomonidan yangi o'zbek adabiy tilini loyihalashda ham bunga o'xshaydigan til garmoniyasi hodisasi qayd etilgan edi. Ayrim ikki bo'g'inli uyg'urcha so'zlar, jumladan, *altun* /altun/ ilk o'zbek-lotin yozuvida *alt̃n* /altun/, *dūshenbe* /dyʃæn bæ/ → *dyʃæn bə* /dyʃæn bæ/, *gūzel* /gyzæl/ → *gəzəl* /gəzæl/ kabi shaklda ifodalangan. Shuningdek, *kel+di* o'zagida old qator /e/ unlisi bilan suffiksdagi unli ham old qator /i/, *qal+d̃* /qald̃u/ esa o'zakdagi orqa qator /a/ bilan suffiksdagi orqa qator /u/ bo'lib moslashgan. Aytish mumkinki, hozirgi o'zbek adabiy tilida til garmoniyasi hech qanday yozuv shartlariga bo'ysunmaydi, shuning uchun ham uning qanday talaffuz qilinishiga oid aniq imlo qoidasi yo'q. Ammo bu xalq orasida, ayniqsa, fors-tojik tilining ulushi nihoyatda past bo'lgan Xorazm, Qashqadaryo, Toshkent va Farg'ona vodiysi kabi ayrim viloyatlarda u hamon mavjud. Binobarin, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga javoban til islohotida tub

modifikatsiya ro'y bergan Turkiston o'lkasida singarmonizm hodisasi qachonlardir o'zbek adabiy tilining asosiy xususiyati sifatida qayta paydo bo'lishi mumkin.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyo hududidagi mamlakatlaridagi tillarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarning ilmiy tadqiqiga bag'ishlangan. Shu sababli maqolaning mazmun-mohiyatini batafsil yoritib berish maqsadida asosiy metod sifatida qiyosiy-analitik hujjat tahlili (comparative-analytical document analysis) metodidan foydalanildi. Ushbu yondashuv fonetik qonuniyatlarning tanlangan hududdagi institutsional asoslarini, qonununiyatlari hamda ularning amalga oshirilish mexanizmlarini tadqiq etish imkonini beradi.

Tadqiqot uchun tanlangan obyekt Markaziy Osiyo hududlaridagi mavjud fonetik qonuniyatning qiyosiy analizi ekanligi tufayli ushbu maqolada har bir holat (case) alohida tahlil qilinadi, ayrim hollarda umumlashmalarga yo'l qo'yiladi. So'ngra ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, tanlangan hududlarning holati baholandi.

Uyg'ur tiliga xos i-umlaut (regressiv assimilatsiya) haqida. Mashhur turkolog G.Jarring Shinjon va Afg'onstonda istiqomat qilgan paytda uzoq vaqt sharqiy turkiy lahjalar, xususan, uyg'ur, o'zbek, turkman tillari bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan. U 1978-yil Koshg'ar shahriga qilgan safari chog'ida davlat lavozimidagi mutasaddilar Koshg'arda tug'ilganiga qaramay, Ili shevasida gaplashayotganini ko'rganini, uni o'sha davrning nafosatli va madaniyatli uyg'uri deb ta'riflaganini aytadi. [7] Xususan, 1929–1930-yillarga qaraganda mahalliy aholining so'z boyligi ham Ili shevasiga yaqinroq bo'lganligini ma'lum qiladi. Hatto /u/ unlisi hamon og'zaki til talaffuzida mavjudligiga qaramay, shimoliy shevalarga xos bo'lgan i-umlaut hodisasi, ya'ni regressiv assimilatsiya hodisasi sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Masalan, Koshg'ardagi uyg'urlar "(uning) ati" so'zini boshqa turkiy tillardagidek /atu/ emas, balki /eti/ yoki /iti/ deb talaffuz qilishgan. [8]

4-jadval.

Uyg'ur va boshqa turkiy tillaridagi assimilatsiya hodisasi

til turi	uyg'ur	o'zbek	turk	ozar	qozoq
yozilishi	éti	oti	atı	atı	аты
XFA	/eti/	/øtu/	/atu/	/atu/	/atə/

Ba'zi uyg'ur olimlari bu hodisa shunchaki siyosiy sabablarga ko'ra ishlab chiqilgan savodsizlik natijasi deb salbiy nazar bilan qaraydilar. Masalan, uyg'ur tilshunosi A.Po'latning fikricha, 1954-yilda uyg'ur-arab yozuvini ishlab chiqqan ziyolilar kelgusi oqibatini sinchikovlik bilan ko'ra olmaganligi va lingvistik bilimning yetarli bo'lmaganligi tufayli aslida og'zaki tilning xususiyati bo'lgan /a/, /æ/ → /e/, /i/ o'zgarishini yozuvda ifodalashdan iborat tarixiy bir xatolikka yo'l qo'yan. Hattoki bunday kamyob hodisaning yozuvda aks etishi uyg'urlarni boshqa turkiy xalqlardan uzoqlashtirib, alohida bir til barpo etish maqsadi tomon qo'yilgan noto'g'ri ish edi. [9] Uyg'ur adabiy tili masalasiga oid muhim tadqiqot olib borayotgan I.Olimjonning fikriga ko'ra, singarmonizm (xususan, progressiv assimilatsiya) hodisasi turkiy tillarning, jumladan, uyg'ur tilining eng muhim

xususiyatlaridan biri bo'lib, uning buzilishi uyg'ur tilining buzilishi demakdir. Bir qator tadqiqot xulosalariga ko'ra, singarmonizmning buzilishiga uyg'ur tilidagi orqa qator /u/ tovushining unli tovushlar tarkibidan chiqarilib, uning o'rniga jonli tilga xos /a/, /æ/ → /e/, /i/ o'zgarish qoidasining kiritilishi sabab bo'ldi. Bunday o'zgarish "1940-yillardagi uyg'ur adabiy tilida uchramagan". [10]

Natija va muhokama. Ushbu maqolada tahlilga olingan hududlarning singarmonizmga doir tematik kontent tahlili va qiyosiy matritsa tahlili mamlakatlardagi fonetik qonuniyatlardagi o'xshash va farqli xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ma'lumotlar, asosan, Markaziy Osiyo hududlaridagi tillarning fonetik qonuniyatidagi o'zgarishlarni o'rganishga asoslangan.

Darhaqiqat, Sovet ittifoqi va Xitoy kabi imperiya doirasida etnik jihatdan kamchilikni tashkil etgan millatning adabiy til me'yorlari xususidagi qarashlari siyosiy vaziyatga qarab o'zgarishi tabiiy. Ammo A.Po'lat va I.Olimjon kabi yetakchi olimlar ta'kidlaganidek, ilk uyg'ur tilshunoslarining haqiqatdan ham til bilimlari yetishmaganmi yoki 1940-yillardan oldin regressiv assimilyatsiya hodisasi uyg'ur tili imlosida hech qachon aks etmaganmi, degan mavzularda munozara o'tkazilishi zarur. 1930-yilda Olmaota uyg'ur til-imlo konferensiyasi vaqtida ham xuddi shu dalilni uyg'ur olimlari L.Ansoriy, Q.Ashurovlar ilgari surib, singarmonizm hodisasiga mos ravishda /u/ unlisi uchun alohida bir harfni kiritish tarafdori bo'lgan, lekin rus olimi S.Malov progressivdan ko'ra regressiv hodisasiga ko'proq urg'u bergandi. [11] Uning fikrini anjumanda qatnashgan Yettisuv viloyatidagi uyg'urlar, qozoqlar hamda tatarlar qo'llab-quvvatlaydilar. Bunga qarshi chiqqanlar faqat O'zbekistonda (Farg'ona vodiysida) yashovchi uyg'urlar edi, xolos. Yettisuv shevasining ustunligi natijasida 1930-yildan beri uyg'ur adabiy tilining yozuvida i-umlaut hodisasi rasman aks ettirilgan. O'sha vaqtda O'zbekistonda uyg'urlar tomonidan "Qutulush", Qozog'istonda esa "Kambag'allarning ovozi" nomli alohida gazeta nashr etilardi. Yettisuv uyg'urlari "Qutulush" gazetasining tilini "tamoman o'zbek tili" deya tanqid qilgan. Holbuki, Farg'ona uyg'urlari "Kambag'allarning ovozi"da foydalanilgan Yettisuv shevasiga qarab uyg'ur tili emas, "taranchi ekan"ligini inkor etadi. [12] Ayniqsa, i-umlaut hodisasi kabi Yettisuv shevasining o'ziga xos fonetik o'zgarishlari uyg'ur tilini boshqa turkiy tillardan ajratib turgani uchun ham qattiq qarshilikka uchradi. Afsuski, 1928–1930-yillarda ikki marta o'tkazilgan til-imlo qurultoyida Shinjon uyg'urlarining ishtiroki ko'zga tashlanmaydi. 1950-yillarda Shinjon uyg'urlari o'zlarining milliy tilini loyihalashda allaqachon til imlosi sifatida amalda bo'lgan Yettisuv shevasiga asoslangan edi. Shuning uchun 1930-yillardan taxminan bir asr o'tsa-da, o'sha muammoga taalluqli muzokara hali ham davom etmoqda. Bugunda bu jarayonga oid islohotlar kerakligiga tarafdor uyg'ur olimlari quyidagi muammolarni takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydilar:

a) Uyg'ur adabiy tilidagi regressiv assimilyatsiya qoidasini amalda qoldirib, so'z ildiziga ulangan birlik va ko'plik qo'shimchalari -i/-si/-lar/-ler ni regressiv assimilyatsiya

tufayli susaytirmaslik kerakligini hamda uygʻur tilida til orqa unli tovushi /u/ mavjudligi asosida, u tovushini uygʻur yozuvida ifodalash uchun ayrim bir harf bilan, masalan, [i] harfi bilan ifodalash lozimligini aytadilar:

5-jadval.

Hozirgi uygʻur imlosi va uning yangicha varianti qiyosi

hozirgi	yangi	oʻzbek	turk	ozar	qozoq
baliliri (balisi)	balalarī (balasī)	bolalari (bolasi)	çocukları (çocuğu)	uşaqları (uşağı)	балалары (баласы)
aniliri (anisi)	analarī (anasī)	onalari (onasi)	anneleri (annesi)	anası anaları	анасы аналары
közliri	közleri	koʻzlari	gözleri	gözləri	көздері

b) Jonli tilning taʼsiri bilan shakillangan *béliq*, *yéqin*, *yériq*, *yérim* degendek soʻzlar *yarim*, *balıq*, *yaqın*, *yariq*, *yarım* shaklida yozilishi kerak:

6-jadval.

Hozirgi uygʻur imlosi va uning yangicha varianti qiyosi

hozirgi	yangi	oʻzbek	turk	ozar	qozoq
béliq	balıq	baliq	balık	balıq	балық
yéqin	yaqın	yaqin	yakın	yaxın	жақын
yérim	yarım	yarim	yarım	yarım	жарым

Xulosa. Yuqorida keltirilgan jadvallardan koʻrinadiki, turk, ozarbayjon va qozoq tillarida tanglay uygʻunligi hodisasiga asoslangan mustaqil [i] yoki [ы] harfi mavjud. Oʻzbek adabiy tilida esa singarmonizmga tarafdor jadidlar, xususan, vodiylıklar 1934-yillardan keyin aksilinqilobiy va burjua millatchiligi sifatida salbiy tanqid qilinib, ular tomonidan yaratilgan [ь] harfidan ham butunlay voz kechildi. Uygʻur va oʻzbek tillarida bir vaqtda til garmoniyasining yoʻqolib ketishi va nihoyat, Qoraxoniylar davridan buyon mavjud boʻlgan Fargʻona vodiysi va Yetti Shahr oʻrtasidagi etnolingvistik aloqalarni zaiflashtirdi. Oʻzbekistonning ilk poytaxti Toshkent emas, balki Samarqand boʻlganligi va uygʻurlarning ijtimoiy-siyosiy markazi ham Koshgʻar emas, balki shimoliy Yettisuv viloyati boʻlganini inobatga olsak, palatal singarmonizmning har ikki tildan ham yoʻqolib ketishining sababi koʻp jihatdan siyosiy niyatlar tufayli yaratilgan boʻlishi mumkin. Shuning uchun bu natijani soʻzsiz “ayrim bilimsiz ziyolilar tomonidan xato qilingan” deb baholash notoʻgʻri, chunki sabab va jarayon nima boʻlishidan qatʼi nazar, 1928-1930-yillarda uygʻurlarning oʻzlari tomonidan kelishilgan xulosa edi. Oʻzbeklarning esa 1934-yilda buni bekor qilishi, albatta, dunyo turkiy xalqlarning oʻzaro yaqinlashishiga bir qadam hissa qoʻshishi mumkin, lekin bu tilning tabiiy oʻsishiga toʻsqinlik qiluvchi sunʼiy va siyosiy qaror boʻlishi ham mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. Oʻzbek tili fonetikasi: oʻquv-uslubiy qoʻllanma. – Andijon: ADU nashriyoti, 2016. – B.93.
2. Mayer C., McCollum A., Eziz G. Issues in Uyghur phonology. // Language and Linguistics Compass. 2022. № 16(12). – P.4.

3. Sopi N. Uyghur tili Ili éghizi heqqide tetqiqat. – Falsafa.fan.Ph.D. diss. Merkiziy milletler uniwersiteti, 2010. – B.14.; Abdulla A., Ebeydulla Y., Raxman A. Hazirqi zaman uyghur tili. – Ürumchi: Shinjang xelq neshriyati, 2010. – B.739, 758.; Mayer C., McCollum A., Eziz G. Issues in Uyghur phonology. 2022. – P.6.
4. Mayer C., McCollum A., Eziz G. Issues in Uyghur phonology. 2022. – P.2.
5. Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. O'zbek tili fonetikasi. 2016. – B.93.
6. Mahmadiyev Sh., Enazarov T. O'zbek dialektologiyasi (o'quv qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – B.24.
7. Jarring G. Return to Kashgar. (Claeson E. tarjima ostida) – Durham: Duke University Press, 1986. – P.141.
8. Jarring G. The New Romanized Alphabet for Uighur and Kazakh and some Observations on The Uighur Dialect of Kashgar. // Central Asiatic Journal. 1981. № 25(3/4). – P.238.
9. Polat A. Uyghur Türkçesindeki a, ä Ünlülerinin e, i'ye Değişmesi ve Sebepleri. // Türk Dünyası Dil ve Edebiyatı Dergisi. 2002. № 13. – B.132.
10. Inayet A. Uyghur tili inqilabi toghrisida. // Uyghur akademiyesi. 2019-yil, 15-kuni, Oktabr
11. Ənsari L. 2-Ujoqur til-imla kənpirinsusinin toxtamliri (Qazaqistan maarip kəmisarijati, ilmi kenişnin tapşurşu bojica jezildi). – Almati: Qazaqistan basmisi, 1932. – B.8.
12. Ənsari L. 2-Ujoqur til-imla kənpirinsusinin toxtamliri. 1932. – B.9.

